

**JAMG'ARMA DEPOZIT
SHARTNOMASI № ____/2024**

_____ sh.

“ ____ ” _____ 2024 y.

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan № _____ sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi _____ **BXO Boshqaruvchisi** _____, va _____ (keyingi o‘rinlarda “Depozitor” deb nomlanadi) nomidan _____ asosida faoliyat yurituvchi rahbari _____, ikkinchi tarafdin, birgalikda esa «Tomonlar» deb yuritiluvchilar ushbu shartnomani (keyingi o‘rinlarda «Shartnoma» deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Depozitor Bankga _____ (_____) so‘m (keyingi o‘rinlarda “Depozit” deb yuritiladi) miqdoridagi pul mablag‘lari depozit hisobvarag‘iga kelib tushgan kundan 20__ yil “__” _____ gacha jamg‘arma depozit sifatida beradi.

1.2. Mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan muddat davomida berilgan depozit mablag‘dan foydalanganligi uchun Bank Depozitorga 365 kun xisoblagan xolda yillik __% (_____) foiz) miqdorida ustama haqi to‘laydi.

1.3. Depozit bo‘yicha foiz to‘lovlari oyma-oy va depozitni qaytarish kunida amalga oshiriladi.

1.4. Ushbu shartnomani amal kilish muddati davomida depozitor tomonidan dastlabki summasiga qo‘shimcha mablag‘lar kiritib borilishi mumkin.

2. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Depozitorning majburiyatlari:

2.1.1. Shartnomani 1.1. bandida ko‘rsatilgan depozit mablag‘ini 5 (Besh) bank ish kunida Bank tomonidan ochilgan № 206 _____, MFO 00083 jamg‘arma depozit hisob raqamiga mazkur Shartnomada ko‘zda tutilgan shartlarda jamg‘arma depozit sifatida joylashtirish uchun o‘tkazib beradi.

2.1.2. Depozitni muddatidan oldin to‘liq yoki qisman qaytarib berishni talab qilishdan oldin, Bankni depozit qaytariladigan sanadan kamida bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi.

2.1.3. Depozit hisob raqamini ochish uchun so‘ralgan barcha kerakli xujjatlarni Bankga taqdim etadi.

2.1.4. O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me‘yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Bankning so‘roviga asosan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni taqdim qilish.

2.2. Bankning majburiyatlari:

2.2.1. Depozitor nomiga jamg‘arma depozit hisobvaragi ochadi.

2.2.2. Depozitor tarafidan joylashtirilgan depozitni butligini ta‘minlaydi.

2.2.3. Depozitdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan foizlarni hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 764-moddasi va “Tijorat banklarda foiz hisoblash tartibi to‘g‘risida”gi (A.V. 3460-son 23.08.2023-y.) Nizomga asosan amalga oshiriladi.

2.2.4. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida Depozitorga Depozit bo'yicha foizlarni har oyda, o'ning oxirgi kunini hisobga olgan holda hisoblab boradi va keyingi oyning 5 (besh) bank ish kuni davomida to'lab boradi. Agar to'lovlarni o'tkazish kuni dam olish kuniga to'g'ri kelsa, keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan holda to'lab berilishi lozim.

2.2.5. Bank depozit buyicha xisoblangan foizlardan daromad solig'ini O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda belgilangan miqdorda ushlab kolgan xolda utkazib boradi.

2.2.6. Mazkur Shartnomaning 1.1. bandida keltirilgan muddat tugagach depozit summasi va qolgan foizlarini Depozitorning hisobvarag'iga o'tkazadi. Agar to'lovlarni o'tkazish kuni dam olish kunlariga to'g'ri kelsa keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan xolda o'tkazib beradi.

2.2.7. Depozitni to'liq yoki qisman muddatidan oldin olish bo'yicha Depozitordan talabnoma olingan taqdirda, Bank bunday talabnoma olingan sanadan bir oydan kam bo'lmagan muddatda Depozitorga Depozit summasini to'liq yoki bir qismini talabnomaga muvofiq holda va foizlarni mablag'dan foydalangan davr uchun yilda 365 (uch yuz oltmish besh) kun hisobidan kelib chiqadigan yillik 2% (ikki foiz)dan hisoblab o'tkazadi. Bunda depozit uchun avval utkazilgan foizlar qayta hisob-kitob qilinib, asosiy depozit summasidan ushlab kolinadi.

Bank tomonidan kreditlar, mikroqarzarlar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Depozit mablag'lari to'aligacha yoki qisman ushbu shartnomada kelishilgan Depozitni qaytarish muddati kelgunga qadar depozit hisobraqamidan hisobdan chiqarilganda, unga foizlar ushbu shartnomaning mazkur bandiga asosan, muddatidan oldin qaytarilayotgan mablag'lar uchun belgilangan shartlarda to'lab beriladi.

Depozitni qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda, depozitni qaytarish amaliyoti amalga oshirilgan kundan keyingi kunning boshlanishi holatiga, amalda qolgan qismiga nisbatan foizlar yilda 365 (uch yuz oltmish besh) kun hisobidan kelib chiqadigan yillik _____% (_____ foiz)dan hisoblanadi.

2.2.8. Depozit mablag'i to'liq yoki qisman muddatidan oldin Bankning tashabbusi bilan qaytarilgan taqdirda, muddatidan avval qaytarilgan summaga nisbatan mazkur shartnomaning 1.2. bandida belgilangan miqdorida xaqiqatda foydalangan kunlar uchun foizlar hisoblangan holda o'tkaziladi.

Depozitni qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda, depozitni qaytarish amaliyoti amalga oshirilgan kundan keyingi kunning boshlanishi holatiga, amalda qolgan qismiga nisbatan foizlar yilda 365 (uch yuz oltmish besh) kun hisobidan kelib chiqadigan yillik _____% (_____ foiz)dan hisoblanadi.

2.2.9. Depozitorning yozma so'rovnomasiga asosan to'lov manbaidan ushlab qolingani soliq to'g'risidagi ma'lumotnomani Depozitorga taqdim etadi.

2.2.10. Bank tomonidan Depozitorning Depozit bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda, bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Depozitorga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.

2.2.11. Bank tomonidan kreditlar, mikroqarzarlar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun Depozitdan mablag'lar Depozitorning topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Depozitorga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.

3. TARAFLARNING HUQUQLARI

3.1. Depozitor quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Depozitor depozitni to'liq yoki qisman shartnomada ko'rsatilgan muddatga kadar muddatidan oldin qaytarib olish. Bunda Bank Depozitorga Depozitni amalda joylashtirilgan muddat uchun foizlarni mazkur Shartnomaning 2.2.7. bandida keltirilgan shartlarga asosan to'lab beradi.

3.1.2. Bankning tashabbusi depozit to'liq yoki qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda muddatidan avval qaytarilgan summaga mazkur shartnomaning 1.2.-bandida belgilangan foiz miqdorida depozitdan haqiqatdan foydalanilgan kunlar uchun foizlarni olish.

3.1.3. Bank tomonidan Depozitorning depozit hisobvarag'i bo'yicha amaliyot to'xtatilganida va Depozitorning topshirig'isiz hisobidan mablag' chiqarilganida _____ v ositasi orqali xabarnoma olish.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Mazkur shartnomani shartlarini o'zgartirish bo'yicha taklif bilan Depozitorga murojaat qilish. Mazkur shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar Depozitorning roziligi va shartnomaga qo'shimcha kelishuv bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

3.2.2. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq depozitordan lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

3.2.3. Mazkur shartnomaning 3.2.2 bandida nazarda tutilgan hollarda mijoz tomonidan Bankka zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni taqdim etmaslik, bajarmaslik, bo'yin tovlash kabi holatlar yuz berganda bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga, voz kechishga va bekor qilishga haqlidir.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Mazkur shartnomada bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4.2. Mazkur shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z muddatida amalga oshirilmagan taqdirda, to'lovni kechiktirgan taraf to'lovlar kechiktirilgan har bir kun uchun asosiy qarz summasining 0,05% miqdorida penya to'laydi, lekin to'lanishi lozim bo'lgan summaning 10% foizidan oshmasligi lozim.

4.3. Penyalarni to'lash taraflarni mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Shartnoma taraflar o'rtasida imzolangan va depozit hisob raqamiga mablag'lar joylashtirilgan kundan boshlab kuchga kiradi hamda Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amalda bo'ladi.

5.2. Tomonlarning ikki taraflama roziligiga asosan Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzilib, unda kelishilgan shartlar asosida depozit muddati uzaytirilishi mumkin. Bunda manfaatdor tomon ikkinchi tomonga depozit amal qilish muddati tugashidan kamida 3 kun oldin taklif bilan murojaat qiladi.

5.3. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar yozma ravishda yozilib, ikkala tarafning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanib, muhrlari bilan tasdiqlangan taqdirdagina xaqiqiy xisoblaniladi.

5.4. Bir tomon ikkinchi tomonni 30 (O'ttiz) bank ish kunidan kam bo'lmagan muddatdan avval ogohlantirgan holda, uning yozma roziligiga asosan Mazkur shartnomani bekor qilishi mumkin.

5.5. Mazkur shartnomaning 3.2.2 bandida nazarda tutilgan hollarda mijoz tomonidan Bankka zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni taqdim etilmaganda, Bank mijozni mavjud aloqa kanallari orqali ogohlantirgan holda shartnomani bir taraflama bekor qilishga xaqlidir.

6. MAXFIYLIK

6.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

6.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axbrotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi. Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

6.3. Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq xajmda qoplaydi.

7. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1. Taraflar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi ya'ni taraflarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar sababli shartnoma shartlarini to'liq yoki qisman bajara olmagan taqdirda javobgarlikdan ozod kilinadilar.

7.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Taraflarning pochta manzillari, mulkchilik shakli va rekvizitlari o'zgargan taqdirda biri birlarini ushbu o'zgartirishlar kirilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida ta'sis xujjatlari va boshqa rasmiy ma'lumotlarni taqdim qilgan xolda ogohlantirish majburiyatini oladilar. Aks xolda eski rekvizitlar bo'yicha pul mablag'larni o'tkazib yuborgan yoki xabarnomalar yuborgan taraf Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan hisoblanadi.

8.2. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar. Agar taraflar kelishmovchilik vanizolarni tinch yo'l bilan hal etishga erisholmagan taqdirda, mazkur kelishmovchilik va nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

8.3. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

9. **TARAFLARNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI**

“Bank”

«Hamkorbank» ATB

_____ filial manzili _____

Tel/faks (8 3____) _____, _____

Aloka markazi: 0 800 1-200-200

e-mail: contact@hamkorbank.uz

d/h 206 _____,

MFO 00083, INN 200242936, OKONX 96120

_____ **BXO boshqaruvchisi**

Bosh buxgalter

“Depozitor”

_____ **tashkilot nomi** _____

_____ **adres** _____

Telefon (+998 7_) _____

h/r 202 _____

v _____ MFO 0 _____, INN:

_____ **vakolatli shaxs lavozim** _____

Bosh buxgalter